

Adiblar xiyoboni – ma'naviyat maskani

□ Adiblar xiyobonida haykallari qad rostlagan ziyoli yozuvchi shoirlarning hayoti va ijod namunalarini o'rganish hamda talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining ushbu ma'naviyat maskaniga tashriflari boshlandi.

□□ Bugun Teatr san'ati fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Jamshid Sobirov boshchiligida fakultet talaba-yoshlari ishtirokida xiyobonda ma'naviy-badiiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida iste'dodli talabalar buyuk shoir Muhammad Yusuf haykali oldida kitob mushoirasi hamda shoir ijodiga mansub she'rlardan kuy-qo'shiqlar ijro qildilar.

Shundan so'ng esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Lola Eltoyeva bilan ijodiy uchrashuv tashkil qilindi. Lola Eltoyeva adabiyot bilan hamnafas bo'lish ijodkorning ijodiy barkamolligida juda yuksak ahamiyatga ega ekanligi, xususan, Muhammad Yusufning ijodi, nafaqat o'zbek adabiyoti, balki qo'shiqchilik san'atida ham alohida bosqichga aylangani, bugun ham qanchadan qancha yoshlar uning she'rini kuyga solib san'at olamiga qadam qo'yayotganini ta'kidladi hamda barcha yoshlarni kitob o'qishga, o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodiga ko'p va xo'p murojaat qilishga undadi.

O'z navbatida talabalar ham shoirning she'rlarini yoddan o'qib berdi hamda eng namunali talabalarga aktrisa tomonidan kitoblar sovg'a qilindi.